



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 14-fevral

69-6-81-Q/25

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyat hokimining 2025-yil 11-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qishloq xo‘jaligi ekin maydonlari unumdorligini oshirish, tarmoqqa investitsiyalar jalb qilish uchun qulay shart-sharoit yaratish bo‘yicha navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2025-yil 3-fevraldagi PF-18-son Farmoni ijrosi haqida”gi 62-6-0-Q/25-sonli qarori to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qishloq xo‘jaligi ekin maydonlari unumdorligini oshirish, tarmoqqa investitsiyalar jalb qilish uchun qulay shart- sharoit yaratish bo‘yicha navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2025-yil 3-fevraldagi PF-18-son Farmoni hamda Namangan viloyat hokimining 2025-yil 11-fevraldagi 62-6-0-Q/25-sonli qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 21¹-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyat hokimining 2025-yil 11-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qishloq xo‘jaligi ekin maydonlari unumdorligini oshirish, tarmoqqa investitsiyalar jalb qilish uchun qulay shart- sharoit yaratish bo‘yicha navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2025-yil 3-fevraldagi PF-18-son Farmoni ijrosi haqida”gi 62-6-0-Q/25-sonli rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 3-fevraldagi PF-18-son Farmoni bilan:

Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Qishloq xo‘jaligi vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, Andijon, Jizzax, Namangan, Toshkent va Farg‘ona viloyatlari hokimliklarining qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer uchastkalarini ajratishda, tajriba-sinov tariqasida, ijaraga oluvchilarning mustaqilligi va yuqori qo‘shilgan qiymatga ega ekinlar yetishtirishga asoslangan yangi tizim (keyingi o‘rinlarda yangi tizim) yaratish to‘g‘risidagi taklifiga rozilik berilganligi;

belgilanishicha, yangi tizim doirasida:

a) yer uchastkalari konturlar yaxlitligi va sug‘orish tizimini buzmaganda 3 gektardan 50 gektargacha bo‘lgan o‘lchamlarda “E-auksion” savdo platformasida elektron onlayn auksion savdolariga chiqarilishi;

b) har bir lot hujjatida, keyinchalik esa yer uchastkasining ijara shartnomasida quyidagilar majburiy ravishda ko‘rsatilishi:

yer uchastkasining normativ qiymati va tuproq bonitet bali; tuproq tarkibi va sifati tahlili natijalari, o'rganilgan vaqti; almashlab ekish tavsiya etiladigan asosiy va takroriy ekin turlari; suv bilan ta'minlash usullari, davlat tomonidan kafolatlanadigan yillik suv yetkazib berish limitlarining eng past va eng yuqori darajasi;

dala chetida (muhofaza zonasidan tashqari) 20 sotixdan ko'p bo'lmagan, lekin ijaraga berilgan kontur maydonining bir foizidan oshmagan qismida qishloq xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi obyektlarni (yengil konstruksiyali muzlatkichli omborxonalar, saralash, qadoqlash joylari, suv tejovchi texnologiyalar, dala shiyponi, texnika parki) joylashtirishni nazarda tutgan holda ishlab chiqilgan yer tuzish loyihasi;

d) elektron onlayn auksion savdolarida yashash joyidan (yuridik manzilidan), tashkiliy-huquqiy shaklidan, boshqa yer uchastkasi bor yoki yo'qligidan qat'iy nazar, barcha jismoniy va yuridik shaxslar (rezidentlar), shu jumladan, chet el investisiyalari ishtirokidagi korxonalar ishtirok etishi mumkin. Bunda auksion g'olibi keyinchalik yer uchastkasi joylashgan viloyatda (Qoraqalpog'iston Respublikasida) yuridik shaxs tashkil etishi yoki o'zining yuridik manzilini shu hududga ko'chirilishi;

e) elektron onlayn auksion savdolari orqali aniqlanadigan yer uchastkasiga ijara huquqini olish uchun to'lovlar 15 ish kuni ichida to'liq to'lanishi;

bunda:

boshlang'ich narx yer uchastkasi normativ qiymatining 50 foizi miqdorida belgilanganligi;

sotilmagan lotlar har besh kun ichida lotning narxini 10 foizdan boshlang'ich narxning 20 foizigacha bosqichma-bosqich pasaytirgan holda takroriy auksionga chiqarilishi;

f) quyidagilar:

“O'zdavyerloyiha” davlat ilmiy-loyihalash institutining hududiy bo'linmalari yer uchastkalarini elektron onlayn auksion savdolariga chiqarish materiallarini tayyorlash ishlari bo'yicha ijrochi hisoblanishi;

Tuproqshunoslik va agrokimyo ilmiy-tadqiqot instituti - tuproq tarkibi va sifati tahlili natijalarini aniqlash bo'yicha ijrochi hisoblanishi;

g) elektron onlayn auksion savdolaridan tushgan mablag'lar 1-ilovaga muvofiq taqsimlanganligi;

yangi tizim doirasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 3-fevraldagi PF-18-son Farmoni 2-bandiga muvofiq elektron onlayn auksion g'olibi - ijaraga oluvchi Yer kodeksida belgilangan huquqlar va majburiyatlar bilan birga huquqlarga ega bo'lishi hamda majburiyatlarni zimmasiga olishi;

Bosh vazir o'rinbosari J.A.Qo'chqorov, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Qishloq xo'jaligi vazirligi yangi tizim samaradorligini muntazam ravishda tahlil qilgan holda, zaruratga ko'ra, uni 2025-yilgi kuzgi ekish mavsumi va undan keyingi davrlarda boshqa hududlarga ham tatbiq etish bo'yicha taklif kiritib borishi;

Markaziy bank:

uch oy muddatda xorijiy konsultantlarni jalb qilgan holda yer uchastkasiga ijara huquqini garovga qo'yish tartibini ishlab chiqib, belgilangan tartibda tasdiqlashi;

2026-yil oxiriga qadar har yarim yil yakunida yer uchastkasiga ijara huquqini garovga qo'yish hisobiga ajratilgan kreditlar, bu jarayonda aniqlangan tizimli muammolar va ularni bartaraf qilish bo'yicha ko'rilgan choralar haqida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga batafsil axborot kiritib borishi;

Soliq qo'mitasi bir oy muddatda o'z axborot tizimlarida yer uchastkasida yetishtiriladigan qishloq xo'jaligi mahsulotlari turlari va hajmlari, shuningdek, realizatsiya qilingan mahsulotlar haqidagi ma'lumotlarni kiritib borish uchun texnik imkoniyatni ta'minlashi;

quyidagilar:

Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzurida "Qishloq xo'jaligida yer islohotlarini amalga oshirish loyiha ofisi" (keyingi o'rinlarda - Loyiha ofisi);

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, Andijon, Jizzax, Namangan, Toshkent va Farg'ona viloyatlari hokimliklari huzurida "Ijaraga berilgan qishloq xo'jaligi yerlariga xizmat ko'rsatish direksiyasi" davlat korxonalari (keyingi o'rinlarda Direksiyalar) tashkil etilishi;

belgilanishicha:

Loyiha ofisi Direksiyalar faoliyatini muvofiqlashtiradi;

Direksiya ijaraga oluvchilarning yer uchastkasining ijara shartnomasida belgilangan huquqlaridan amalda foydalanishlarini kafolatlaydi, xususan, suv yetkazib berish limitlariga rioya qilinmasligi natijasida yetkazilgan zararlarni darhol qoplab berib, keyinchalik regress tartibida undirib oladi;

Direksiya, o'z tanloviga ko'ra, ijaraga berilgan yerlarning sug'orish tizimlarini yaxshilash, elektr energiyasi ta'minoti obyektlarini qurish va rekonstruksiya qilish, texnikalar harakati uchun ichki xo'jalik yo'llarining holatini yaxshilash kabi ishlarga mablag' ajratadi, mazkur ishlarda buyurtmachi vazifasini bajaradi;

Direksiya direktori tegishli Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi yoki viloyat hokimi tomonidan Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan kelishilgan holda tayinlanadi;

quyidagilar:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 15-dekabrda "Meva- sabzavotchilik sohasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, tarmoqda klaster va kooperatsiya tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-52-son qaroriga asosan Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash jamg'armasi hisobidan meva-sabzavot mahsulotlarini xarid qilish va saqlash uchun aylanma mablag'larni to'ldirishga 12 oy muddatga yillik 14 foiz stavkada (shundan 2 foizi bank marjasi) kreditlar ajratilishi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-fevraldagi "Respublikada oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF- 36-son Farmoniga asosan xalqaro moliya institutlarining 220 million AQSh dollari miqdoridagi mablag'lari hisobidan tijorat banklari tomonidan yillik Markaziy bank asosiy stavkasidan 4 foizlik punkt yuqori stavkada milliy valyutada oziq-ovqat yo'nalishidagi, sohada mahsulot yetishtirishdan tortib uni iste'molchiga yetkazib berishgacha bo'lgan qo'shilgan qiymat zanjirini yaratishga qaratilgan loyihalarni moliyalashtirish uchun 10 yil muddatga 3 yillik imtiyozli davr bilan, aylanma mablag'lar uchun 18 oy muddatga 6 oylik imtiyozli davr bilan kreditlar ajratilishi;

"Kichik biznesni uzluksiz qo'llab-quvvatlash" kompleks dasturi doirasida yuqori qiymatli qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish, qishloq xo'jaligi texnikalari va asbob-uskunalarini xarid

qilish, kichik hajmdagi sovitkichli omborxonalarni qurish uchun 300 mln so‘mgacha, shundan 100 mln so‘mgacha garov ta’minotisiz kreditlar ajratilishi;

Loyiha ofisi va Direksiya mazkur mablag‘lardan foydalanishda ijarachilarga har tomonlama ko‘maklashishi;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 19-yanvardagi “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer uchastkalarini ijaraga berish tartibini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-15-son Farmoni 2-bandining “a” kichik bandi, “sotilmagan lotlarning narxi har takroriy savdoda 10 foizdan bosqichma-bosqich boshlang‘ich narxning 20 foizigacha kamaytiriladi” so‘zlari bilan to‘ldirilganligi ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

3. Namangan viloyat hokimining mazkur qarori bilan:

Kadastr agentligining viloyat boshqarmasi (B.Pazilov), Qishloq xo‘jaligi boshqarmasining birinchi o‘rinbosari (N.Xudoyberdiyev) hamda tumanlar hokimliklari bilan birgalikda 2025-yil oxiriga qadar yaylov yerlarini xatlovdan o‘tkazib, ularning amaldagi va davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan maydoni o‘zaro muvofiq bo‘lishini ta’minlash;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 3-fevraldagi PF-18-son Farmoni bilan belgilab qo‘yilishicha:

Suv xo‘jaligi vazirligi va Qishloq xo‘jaligi vazirligi “E-ijara” va “Suv hisobi” axborot tizimlarini integratsiya qilish orqali “O‘zdavyerloyiha” davlat ilmiy-loyihalash institutiga yangi tizim doirasida ijaraga beriladigan yer uchastkalari bo‘yicha suv bilan ta’minlash usullari, yillik suv yetkazib berish limitlari haqidagi ma’lumotlarni taqdim etishi;

belgilanishicha, yer uchastkasining ijara shartnomasida nazarda tutilgan suv yetkazib berish limitlariga rioya qilinmagan hollarda “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasalari, irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari, tuman hokimliklari va Direksiya ijarachi oldida solidan javobgar bo‘lishi;

Soliq kodeksining 428-moddasiga asosan:

yangi barpo etilayotgan bog‘lar, tokzorlar va tutzorlar egallagan yer uchastkalari (daraxtlarning qator oralaridan qishloq xo‘jaligi ekinlarini ekish uchun foydalanilishidan qat’iy nazar) uchun besh yil muddatga 50 foizga kamaytirilgan soliq stavkasi bo‘yicha soliq to‘lanishi;

qishloq xo‘jaligi maqsadlari uchun yangi o‘zlashtirilayotgan yerlar ularni o‘zlashtirish ishlari bajariladigan davrda va ular o‘zlashtirilgan vaqtdan e’tiboran besh yil mobaynida yer solig‘i to‘lashdan ozod qilinganligi;

Soliq qo‘mitasi mazkur Farmonga asosan yangidan ijaraga berilgan yer uchastkalarida tashkil etilgan bog‘lar, tokzorlar va tutzorlar uchun ham mazkur imtiyoz to‘liq tatbiq etilishini ta’minlashi;

organik mahsulotlar yetishtirish uchun Global G.A.P, GMP, FSCC, HACCP, Halal, Organic va boshqa xalqaro darajada tan olinadigan sertifikatlarni olgan dehqon, fermer xo‘jaliklari va qishloq xo‘jaligi korxonalariga ijaraga berilgan yer uchastkalari uchun 2028-yil 1-yanvarga qadar yer solig‘i 50 foiz miqdorida to‘lanishi;

Pop tumanida yangi tizimni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 3-fevraldagi PF-18-son Farmoni 3-ilovadagi ijaraga berilgan yer uchastkalarida qo‘shimcha shartlar asosida tatbiq etish to‘g‘risidagi taklifga rozilik berilganligi;

Viloyat hokimining o‘rinbosarlari (A.Abduhamidov, A.Xakimov) viloyat hokimligi huzurida “Ijaraga berilgan qishloq xo‘jaligi yerlariga xizmat ko‘rsatish direksiyasi” davlat korxonasi (keyingi o‘rinlarda - Direksiya) tashkil etish chorasini ko‘rsishi;

“Namangan hududiy elektr tarmoqlari” AJ (A.Karabayev) ijaraga oluvchilarga suv tejevchi texnologiyalarni joriy etish va boshqa maqsadlar uchun kafolatlangan elektr energiyasi yetkazib berilishini ta‘minlashi;

Viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari A.Abduhamidov, viloyat hokimining qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari - qishloq xo‘jaligi boshqarmasi boshlig‘i A.Xakimov, Pop tumani hokimi A.Sultanov bilan birgalikda yer maydonlarini ajratish ishlarini 2025-yil 1-martga qadar to‘liq yakunlashi;

Bunda:

2025-yil 6-fevralga qadar - Kadastr agentligining viloyat boshqarmasi (B.Pazilov) bo‘sh turgan yer uchastkalari haqidagi ma‘lumotlarni “E-ijara” axborot tizimiga taqdim etish;

2025-yil 10-fevralga qadar - Qishloq xo‘jaligi boshqarmasi (N.Xudoyberdiyev), Davlat aktivlarini boshqarish agentligining Namangan viloyat hududiy boshqarmasi (B.Matmusayev), Pop tumani hokimi lotlarni elektron onlayn auksion savdolariga chiqarish;

2025-yil 18-fevralga qadar – Pop tumani hokimi A.Sultanov yangi tizimga o‘tish istagini bildirgan fermer xo‘jaliklari bilan notarial shartnomalar imzolanishini va ulartomonidan tuman hokimligi tasarrufiga qaytarilgan yer uchastkalarining elektron onlayn auksion savdolariga chiqarilishini ta‘minlash;

2025-yil 1-martga qadar - Kadastr agentligining viloyat boshqarmasi (B. Pazilov) yer uchastkalarining ijara shartnomalari asosida yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazsin, Qishloq xo‘jaligi boshqarmasi (N.Xudoyberdiyev) yer uchastkalari chegaralarini naturada (joyning o‘zida) belgilab berish;

2025-yil 7-martga qadar - Pop tumani hokimi A.Sultanov mazkur Farmon asosida amalga oshirilgan ishlar haqida batafsil axborot kiritish.

Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining viloyat boshqarmasi (A.Ergashev), Namangan viloyat teleradiokompaniyasi (M.Maqsudov), Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (M.Abdullaev), Qishloq xo‘jaligi boshqarmasi (N.Xudoyberdiyev):

mazkur Farmonning mazmun-mohiyati, maqsad va vazifalari ommaviy axborot vositalarida keng yoritilishini ta‘minlash;

viloyat Adliya boshqarmasi bilan birgalikda mazkur Farmonning mazmun- mohiyati, maqsad va vazifalari haqida joylarda uchrashuvlar, davra suhbatlari, seminarlar, aholi va ijrochilar o‘rtasida tushuntirish va targ‘ibot tadbirlari o‘tkazish;

Raqamli texnologiyalar vazirligi viloyat hududiy sho‘basi (R.Holmatov) bilan birgalikda mazkur Farmon haqida aholi va tadbirkorlarni internet tarmog‘i va mobil aloqa vositalari orqali tezkor ravishda xabardor qilish choralari ko‘rish topshirilganligi ma‘lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

4. Kadastr agentligining tuman bo‘limi (A.Shodmonov), Qishloq xo‘jaligi bo‘limi (A.Xakimov) tegishli tashkilotlar bilan birgalikda O‘zbiyekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 3-fevraldagi PF-18-son Farmoni asosida ish tashkil qilsin.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari – tuman iqtisodiyot va moliya bo'limi boshlig'i A.Abdusalomov va tuman hokimining o'rinbosari – tuman qishloq xo'jaligi bo'limi boshlig'i I.Ergashev zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov